



UDK:378.091

Sayid ISLIKOV,
Guliston davlat universiteti Masofaviy ta'lim kafedrasini mudiri
E-mail: sayidislikov@gmail.com

PhD, dotsent M.Niyozov taqrizi asosida

SPECIAL ADVANTAGES OF USING DISTANCE LEARNING

Annotation

The article analyzes the content of distance learning, its advantages, superior aspects and disadvantages compared to other forms of organizing training, and also covers its types in detail.

Key words: Educational process, distance learning, distance reading, student, teacher.

ОСОБЫЕ ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация

В статье проанализированы содержание дистанционного обучения, его преимущества, превосходящие аспекты и недостатки по сравнению с другими формами организации обучения, а также подробно освещены его виды.

Ключевые слова: Образовательный процесс, дистанционное обучение, дистанционное чтение, студент, преподаватель.

MASOFALI TA'LIMDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS AFZALLIKLARI

Annotatsiya

Maqolada masofali ta'lim mazmuni, afzalliklari, ta'limni tashkil etishning boshqa shakllaridan ustun jihatlari va kamchiliklari tahlil qilingan, ularning turlari atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim jarayoni, masofali ta'lim, masofaviy o'qish, talaba, o'qituvchi.

Kirish. Bugungi kunda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va o'zgarimoqda. Deyarli har daqiqada yer sharining turli burchaklarida o'zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqea hodisalar sodir bo'lmoqda. Har bir kunimiz turli yangilik oqimi ostida kechmoqda. Axborot oqimi bizni har joyda, ishxona, uyda va hattoki ta'tilda ham ta'qib etadi. Hayotni anglash, uni o'rganish axborotlarni yig'ish va o'zlashtirish orqali kechadi. Insonning bilimlilik darajasi ham ma'lum davr ichida shaxs tomonidan o'zlashtirilgan axborotlarning ko'p yoki ozligi bilan belgilanadi.

Shuning uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish ta'limotni takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning talabiga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Vaholanki, ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'lim tizimida masofadan o'qitish uslubi shakllari qo'llanilmoqda. Masofaviy ta'lim uslubi bu sirtqi o'qishning yangi shakli va mustaqil o'qishdir.

Shuning uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish ta'limotni takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning talabiga aylandi. Ko'pchilik axborot texnologiyalar asosi internetdan faqatgina yangiliklar bilan tanishish, axborot qidirish, elektron pochtdan foydalanish kabi xizmatlar uchun foydalanishi sir emas. Internetning imkoniyatlari kundan - kunga oshib bormoqda. Internetdan foydalanishning yangi bosqichi boshlandi, ya'ni internet turli sohalariga tadbiiq qilindi. Internet texnologiyalari -masofadan o'qitish, elektron kutubxonalar, onlayn savdolar, onlayn treninglar, internet magazinlar va boshqalar [1].

Bugungi kunda masofali ta'limdan foydalanish dolzarb masalalardan bo'lib, uning uslublari, texnologiyalari, usul va vositalarini yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Masofaviy ta'lim tizimi o'qitish texnologiyalaridan foydalanishning nazariyasi

va amaliyoti masalalari, uning didaktik va uslubiy asoslari, shuningdek, yurtimiz olimlari A.Abduqodirov, A.Pardayev, U.Begimkulov, N.Muslimov, A.Hayitov, F.Zakirovalar tomonidan tadqiq qilingan.

Markaziy davlatlar hamdo'stligi davlatlari olimlari A.Andreev, G.Levkin, E.Polat, N.Naydenova, I.Varganova, M.A.Malo'sheva, N.Valyushina, R.Pimonov, N.Gavrilov, I.Zadorojnyaya, S.Berejnaya, S.Bogdanovalar ishida ham masofaviy ta'lim tizimi modellari, rivojlantirish masalalari, shakllari, pedagoglar malakasini oshirish tizimida masofadan o'qitish texnologiyalarini qo'llash, o'quv mazmunining variativligi kabi masalalar bayon etilgan. Jumladan, T.P.Voronina, V.P.Kashitsin, O.P.Molchanovlar tomonidan tayyorlangan monografiyada masofaviy ta'limning to'rt modeli ko'rib chiqiladi, bular: an'anaviy sirtqi, ochiq -televizion ta'lim (tele-ta'lim), virtual sinflar va virtual universitetlar.

Masofaviy ta'lim tizimining yuqorida tadqiq qilingan jihatlari xorij olimlari I.Allen, A.Amadco, J.Seaman, D.Keyegan, H.Kappel, B.Lehmann, J.Loeper, B.Holmberg, M.Dougiamas, P.Taylorlar izlanishlarida ham o'z aksini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Internet texnologiyalarining kirib kelishi bir necha asrlar davomida o'zgarmay kelgan holatlarni o'zgartirib yubordi. Bu odatdagi xat yozishmalari elektron pochta bilan, kutubxonalar esa web-saytlar bilan almashinishida namoyon bo'ldi. Endilikda esa ta'lim tizimida ta'lim olishning an'anaviy shakllari o'rniga masofaviy ta'lim elementlari kirib keldi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta'lim jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli - masofaviy o'qitish yaratilishiga omil bo'ldi.

Masofaviy ta'limda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning

boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo'ladilar. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi.

Ma'lum sabablarga ko'ra, ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlarida tahsil olish imkoniyati bo'lmagan, masalan, sog'ligi taqozga etmaydigan, mutaxassslicigini o'zgartirish niyati bo'lgan yoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo'lgan kishilar uchun masofaviy o'qitish qulay o'qitish shakli hisoblanadi [2].

Masofaviy o'qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya'ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog'liq. Masalan, an'anaviy bosma usuliga asoslangan o'qitish vositalari (o'quv qo'llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferensiyalar ma'lum vaqt orasida o'zaro muloqotda bo'lishga, elektron pochta to'g'ri va teskari aloqa o'rnatishga, ya'ni xabarlarini jo'natish va qabul qilishga mo'ljallangan.

Oldindan tasmasa muhrlangan video ma'ruzalar talabalarga ma'ruzalarni tinglash va ko'rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o'zaro teskari aloqa orqali o'qitish imkonini beradi.

Yuqoridagilarga asosanib, ta'lim jarayonida ayni vaqtda qayta-qayta tilga olinayotgan ayrim terminlar tavsifi va ta'riflarni keltirib o'tamiz.

Masofaviy o'qitish – eng yaxshi an'anaviy va innovatsion metodlar, o'qitish vositalari va formalarini o'z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta'lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim formasidir.

Masofaviy o'qish – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta'lim tizimidir. U ta'lim oluvchiga ma'lum standartlar va ta'lim qonun-qoidalariga asosida o'quv shart-sharoitlari va o'qituvchi bilan muloqotni ta'minlab berib, o'quvchidan ko'proq mustaqil ravishda shug'ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o'qish jarayoni ta'lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo'lishiga bog'liq emas.

Masofaviy ta'lim – masofadan turib o'quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o'qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lim majmuaidir.

Masofaviy o'qitish tizimi – masofaviy o'qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o'qitish tizimi. Barcha ta'lim tizimlari singari masofaviy o'qitish tizimi o'zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.

Masofaviy ta'limning hozirgi sharoitda quyidagicha tashkil etish mumkin:

Moodle tizimi orqali ta'lim jarayonini tashkil qilish. Bunda tizimga fan bo'yicha asosiy resurslar: ma'ruza, test, darslik, glossariy, taqdimotlarni kiritish va tizimni boshqarish;

Telegramm messendjeridan har bir guruhlar kesimida kanallarni ochib, ta'lim resurclari- ma'ruza, test, darslik, glossariy, videodarslarni joylashtirish;

Xar bir fan bo'yicha imkoniyatdan kelib chiqib videodarslar ishlab chiqish;

Fakultetlarda fanlarni vebinar va onlayn shaklda tashkil qilish (Zoom va boshqa dasturlar orqali).

Masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

moslashuvchanlik (ta'lim oluvchiga o'ziga qulay vaqt, joy va tezlikda ta'lim olish imoniyati mavjudligi;

modullilik – bir-biri bog'liq bo'lmagan mustaqil o'quv kurslari to'plamidan - modullardan individual yoki guruh talabiga mos o'quv rejasini tuzish imkoniyati mavjudligi;

parallelilik – o'quv faoliyatini ish faoliyati bilan birga parallel ravishda, ya'ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyati mavjudligi;

keng qamrovlilik – ko'p sonli talabalarning bir vaqtning o'zida katta o'quv (elektron kutubxona, ma'lumotlar va bilimlar bazasi va b.) zahiralari murojaat qila olishi. Bu ko'p sonli talabalarning kommunikatsiya vositalari yordamida o'zaro va o'qituvchi bilan muloqotda bo'lish imkoniyati;

iqtisodiy tejamkorlik – o'quv maydonlari, texnika vositalari, transport vositalari va o'quv materiallaridan samarali foydalanish, o'quv materiallarini bir joyga yig'ish, ularni tartiblangan ko'rinishga keltirish va bu ma'lumotlarga ko'p sonli murojaatni tashkil qilib bera olish orqali mutaxassslarni tayyorlash uchun ketadigan xarajatlarni kamaytirish imkoniyati;

ijtimoiy teng huquqlilik – ta'lim oluvchining yashash joyi, sog'lig'i va moddiy ta'minlanish darajasidan qat'iy nazar hamma qatori teng huquqli ta'lim olish imkoniyati;

internatsionallilik – ta'lim sohasida erishilgan, jahon standartlariga javob beradigan yutuqlarni import va eksport qilish imkoniyati.

Masofaviy ta'lim o'z oldiga barcha ta'lim oluvchilarning birdek talim olishiga sharoit yaratib berishni, ta'limturlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirgan holda ta'lim berish sifat uzluksiz ta'lim darajasini oshirishni, asosiy faoliyat bilan bir qatorda qo'shimcha ta'lim olish imkoniyatini yaratib berishni, uzluksiz ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishni, yangi tamoyillar asosidagi ta'lim darajasini ta'minlashni maqsad qilib belgilagan [3].

Tahlil va natijalar. Soxa olimlari masofaviy ta'limning turli xil ustun tomonlari, afzalliklarini ajratib ko'rsatishgan. Masalan, masofaviy ta'lim olishning, muloqot qilishning yuqori darajadagi osonligi va kam xarajat talab qilishi bilan ishlab chiqarishdan ajralmagan holda yuqori samarali fundamental ta'lim olishni ta'minlanishi, tahsil oluvchi va o'qituvchi, hamda tahsil oluvchilarning o'zlari orasida faol axborot almashinuvini ustun jihat sifatida ajratib ko'rsatilishi shuningdek, masofaviy ta'lim o'qitishning sifat jihatdan yangi turi ekanligi, o'qitishning sintetik, integral, gumanistik shakli deb hisoblaydilar hamda ta'lim muassasalarida masofaviy ta'limning pedagogik texnologiyalarini tanlash va ulardan oqilona foydalanish uning mazmuni va tashkiliy shakllariga bog'liqligini takidlaydilar. Tadqiqotlarda aniqlanishicha masofaviy ta'lim an'anaviy ta'limdan aslo qolishmaydi. Balki samarasiga ko'ra ustunlik jihatlari ham bor. Negaki, o'quv materialining asosiy qismini ta'lim oluvchi o'zi mustaqil o'qib-o'rganadi. Bu o'tilgan mavzularni puxta o'zlashtirish va eslab qolishga yordam beradi. Buning ustiga darslarni yangi texnologiyalar vositasida o'qish ta'lim oluvchi uchun qiziqarli va mazmunli bo'ladi. Bunday ta'lim tizimida darsliklar, qo'llanmalar etishmasligi kabi muammolar bo'lmaydi. O'quvchi o'quv materialini elektron pochta yoki ijtimoiy tarmoq orqali qabul qilib oladi. Shu bilan birga ma'lum saytlarga obuna bo'lishi, ma'lumotlar bazasiga kirib, o'ziga kerakli axborotlarni olishi mumkin.

Masofaviy ta'limni tashkil etishning ijobiy jihatlari quyidagi qulayliklarni qamrab oladi:

- ushbu ta'lim shaklida yoshi hamda ijtimoiy holatidan qat'i nazar, aholining keng qatlami ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda;

- masofaviy ta'lim iqtisodiy jihatdan ta'lim oluvchilar uchun ham, oliygohlar uchun ham samaralidir, chunki unda boshqa an'anaviy ta'lim turlariga qaraganda xarajat va to'lovlar ancha kam. Shuningdek, oliy ta'limning mazkur shakli ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarga oliy ta'lim muassasalariga borish-kelish uchun sarflaydi-gan vaqtni tejash

imkonini bermoqda. Bunda tejalgan vaqt hisobiga yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish imkoniyati ortadi;

- ishdan ajralmagan holda ta'lim olishni xohlovchi talabalar ushbu ta'lim shaklida o'qish vaqti, joyi va o'quv yurtini o'z xohishiga ko'ra tanlashi mumkin;

- maxsus dasturlar yordamida talabaning bilimni baholashda xolislikning ta'minlanishi va korrupsiyaviy holatlarning ancha kamligi ma'lum bo'lmoqda;

- talabada mustaqil bilim olish, o'z ustida ishlash, ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Yuqoridagilar bilan birga, masofaviy ta'limning salbiy jihatlarni ham keltirish mumkin:

- Masofaviy ta'lim ishtirokchilarining erkin savollar bera olmasliklari va hammaning birdek faol bo'lishining cheklanganligi.

- Doimiy virtual muloqotlarning ko'z nuriga zarar etkazishi va muntazam ko'rish funksiyasi sabab nerv-asab tolalarning toliqishiga sabab bo'ladi.

- Masofaviy ta'lim xotirani kuchaytirsada, irodaning sustlashishi va dangasalikga olib keladi [4].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, masofali ta'lim tizimida foydalanish bo'yicha jahonda yetarlicha tajriba to'plangan va ularning tahlilining

ko'rsatishicha masofaviy o'qitish, an'anaviy ta'lim muassasalaridagi o'qitishga qaraganda arzonroq tushadi. Bugungi kunda ko'pgina ta'lim muassasalari, yirik korxona va tashkilotlar o'z mutaxassislarini tayyorlashda, malakasini oshirishda ushbu tizimdan keng foydalanib kelmoqda, bu o'z navbatida ta'lim oluvchining mustaqil bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi bilan birga, muammolarsiz amaliy faoliyatni davom ettirishiga katta imkoniyat bermoqda. Masofaviy ta'limning yana bir qulayligi o'qitish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy texnik infratuzilmaning tejalishi bo'lib, moliyaviy xarajatlar asosan o'quv-uslubiy materiallar tayyorlash hamda internet trafik uchun sarflanadi.

Masofali ta'lim dunyo miqyosida keng qo'llanilayotganligi bois yurtimizda ham bunday ta'lim olish turidan o'rinli va bardavom foydalanishimiz maqsadga muvofiq. Ushbu tizimning psixologik afzalligi va kamchiliklaridan o'z o'rnida foydalanishda ahamiyat berish va uni samarali tomonga boshqarish lozim. Talaba yoshlar va boshqa masofaviy ta'limdan foydalanayotgan yohud foydalanish istagida bo'lgan shaxslarga masofaviy ta'limning konstruktiv tomonlarini tushuntirish va dunyo ta'lim sistemasi darajasiga ko'tarish hozirgi zamon ta'limining talablaridan ekanligini unutmaslik kerak.

ADABIYOTLAR

1. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. –T.: Fan, 2009
2. Shaymatov J.N., Masofaviy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari / Academic research in educational sciences volume 2 issue 2 /2021 284-291 b.
3. Allayarova S.N., Sayitova U.H. Masofaviy ta'lim: mazmuni, imkoniyatlari va kamchiliklari / Academic research in educational sciences volume 2 issue 1 / 2021, 930-936 b.
4. Islikov S. Masofaviy ta'limni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari / O'zMU xabarlari 2024 1/6, 86-89 b